



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

FUQAROLIK JAMIYATINI BARPO ETISHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O'RNI

s.f.n., dots. Hakimov Orziqul Meliyevich

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Abdurasulova Aziza G'ayrat qizi

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi

hakimovorziqul333@gmail.com

Annotatsiya: Fuqarolik jamiyatini barpo etishda jamoatchilik nazorati jamiyatda ijtimoiy adolat barqaror bo'lishi uchun shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarida murosasizlik, tenglik, mas'uliyat va javobgarlik bo'lishi uchun xizmat qiladigan omildir. U insonning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanishi, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor bo'lishini ta'minlaydi. Va nihoyat, jamoatchilik nazoratining mavjudligi siyosiy hokimiyat, tom ma'noda xalq qo'lida bo'lishining ko'rsatkichi hisoblanadi. Mualliflar ushbu maqolada fuqarolik jamiyatida kishilarning faolligi, ijtimoiy xodisalarga befarq bo'lmasligi, har bir rahbar xodimning o'z faoliyatining jamoatchilik nazorati ostida ekanligini teran anglashi zarurligi jamiyat rivojida muhim ahamiyatga egaligi haqida o'z mulohazalarini bildirgan. SHuningdek, mualliflar jamoatchilik nazoratining sub'ektlariga to'xtalib ularga fuqarolar hamda ularning muayyan guruhlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va ommaviy axborot vositalari kiradi. Bulardan tashqari yana bir qancha tuzilmalar borki, ular ham jamoatchilik nazorati olib borishi mumkinligi haqida o'z fikr va mulohazalarini bayon qilgan.

Kalit so'zlar: jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati, demokratik o'zgarishlar, davlat nazorati, boshqaruv organlari, davlat hokimiyati, nodavlat notijorat tashkilotlar, siyosiy partiyalar, o'zini-o'zi boshqaruv organlari, ommaviy axborot vositalari.

Kirish: Mamlakatimiz Prezidenti SH.Mirziyoev tomonidan belgilab berilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining birinchi yo'nalishida jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish vazifasi belgilangan. Ushbu belgilangan vazifalar birin ketin hayotga tatbiq etib kelinmoqda. 2018 yilning 12 aprel kuni "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinishi shular jumlasidandir. Davlat organlari faoliyati ustidan kuchli jamoatchilik nazoratining mavjudligi fuqarolik jamiyatining birlamchi shartlaridandir. CHunki, dunyodagi rivojlangan davlatlar tajribasi keng qamrovli, takomillashgan jamoatchilik nazoratisiz kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etib bo'lmasligidan dalolat beradi. Hammamizga ma'lumki, Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev boshchiligidagi mamlakatimizda o'tkazilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning 2016 yil kuzidan boshlangan yangi bosqichi jamoatchilik nazoratini rivojlantirishga yangi talablar qo'ydi va ayni paytda yangi imkoniyatlar ham ochildi. Jamoatchilik nazorati oldiga

yangi talablar qo'yilishi shu bilan izohlanadiki, belgilangan yangi vazifalar, Harakatlar strategiyasini to'la amalga oshirish jamoatchilik nazoratini keskin kuchaytirishni taqozo etadi. Ikkinchi tomondan, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlar davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning dolzarbligini yanada oshirib yubormoqda. Fuqarolik nazoratining eng muhim shartlaridan hisoblanadigan "Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining oshkoraligi to'g'risida"gi qonun 2013 yilda qabul qilingan va uni bajarish bo'yicha 2013-2014 yillarda Samarqand va Buxoro viloyatlarida o'tkazilgan eksperiment ijobiy natijalar bergan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi bunday oshkoralikni butun mamlakat miqyosida ta'minlash uchun asos yaratdi.

Asosiy qism: Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ikki yo'nalishda olib borilmoqda. Birinchidan, davlat o'zining bosh boshqaruv sub'ekti maqomini saqlagan holda, jamoat tashkilotlar bilan aloqalarni yangi asosga o'tkazmoqda. Endi davlat o'zining muayyan funksiyalarini, bir qator vakolatlarini, huquq va resurslarni jamoat tashkilotlariga o'tkazmoqda. SHu yo'l bilan davlat jamoat tashkilotlarining o'zini o'zi boshqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ikkinchi tomondan jamiyat jamoat tashkilotlarini rivojlantirish orqali ularning ulkan salohiyatini mamlakatni boshqarish yo'nalishida faollashtirmoqda. Endi davlat fuqarolar bilan munosabatlarni yangicha asosga o'tkazish uchun yangi tipdagi munosabatlar, ya'ni shartnoma va boshqa munosabatlarni siyosiy, ma'muriy-buyruqbozlik munosabatlari o'rniga tatbiq etmoqda.

Harakatlar strategiyasida belgilangan tadbirlarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari jamoatchilik nazorati yordamida davlat organlariga halaqit bermagan holda davlat boshqaruvi mexanizmlarini takomillashtirishga, korrupsiyaga qarshi salohiyatini oshirishga, fuqarolarga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini yaxshilashga katta yordam ko'rsatadi [1].

Shu ma'noda, fuqarolik jamiyatida kishilarning faolligi, ijtimoiy xodisalarga befarq bo'lmasligi, har bir rahbar xodimning o'z faoliyatining jamoatchilik nazorati ostida ekanligini teran anglashi jamiyat rivojida muhim ahamiyatga ega. Demak, haqqoniy va real jamoatchilik nazorati hozirgi davrda mamlakatimizda qaror topayotgan kuchli fuqarolik jamiyatining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlisning XI sessiyasidagi "O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari" mavzuyidagi dasturiy ma'ruzasida davlat nazorat funksiyalariga nisbatan jamoatchilik nazorati afzalroq va muhimroq ekanligi xususida to'xtalib, "SHuni unutmaylikki, biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug'ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha kuchaytirsak, amaldorlarning zo'ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. SHuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo'q", deya ta'kidlagan edi [2].

Xo'sh, jamoatchilik nazoratining o'zi nima, u qanday holatlarda namoyon bo'ladi? Jamoatchilik nazorati jamiyatda ijtimoiy adolat barqaror bo'lishi uchun shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarida murosasizlik, tenglik, mas'uliyat va javobgarlik bo'lishi uchun xizmat qiladigan omildir. U insonning xuquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanishi, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor bo'lishini ta'minlaydi. Va nihoyat, jamoatchilik nazoratining mavjudligi siyosiy hokimiyat, tom ma'noda xalq qo'lida bo'lishining ko'rsatkichi hisoblanadi. Uning asl mohiyati ham aynan mana shundan iborat.

Ma'lumki, tekshirish, tahlil qilish, taftish o'tkazish, hisobot talab qilish davlat nazoratining muhim belgilaridan sanaladi. Biroq, jamoatchilik nazoratida talab qilish (axborot, muloqot, hisobot) va ta'sir ko'rsatish huquqlari bo'lishiga qaramasdan, ular majburiy yuridik harakatlar sifatida qaralmaydi. Tabiiyki, jamoatchilik nazorati yuridik ta'sir choralari qo'llay olmasa, undan ne foyda, degan savol tug'ilishi ham mumkin. Jamoatchilik nazorati nafaqat davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatini, balki butun davlat apparati hamda nodavlat sektorni ham qamrab oladi. Demak, jamoatchilik nazoratini amalga oshiradigan organlar faoliyati ham nazoratdan chetda qolmaydi. Demak, jamoatchilik nazorati sub'ektlari muayyan masalada to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazishi mumkin emas. Biroq, bu borada jamoatchilik fikrini shakllantirish orqali davlat hokimiyati organlarining qat'iy choralar ko'rishiga erishish mumkin. Demak, jamoatchilik nazorati jamiyat a'zolari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratdir.

Davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining zarurligini buyuk faylasuflar ham asoslab berishgan. Masalan, Aristotel o'zining asarlarida xalqning mansabdor shaxslar va hukmdorlar ustidan nazoratini davlatning siyosiy barqarorligi hamda gullab-yashnashining eng muhim shartlaridan biri deb hisoblagan.

Abu Nosr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida ham hukmdorlarning aholi oldida hisob berib turishlari va ularning so'zsiz bo'ysunishlari zarurligi alohida ta'kidlanadi.

Jamoatchilik nazoratining maqsadi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining mavjud qonunlarga mosligini tekshirishdan iborat.

Jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi sub'ektlar sirasiga fuqarolik jamiyatining muhim instituti hisoblangan nodavlat notijorat tashkilotlari ham kiradi. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuniga binoan bunday tashkilotlar jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun tashkil etiladi. Ular o'z a'zolari va qatnashchilarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishi, ijtimoiy hayotning turli masalalari bo'yicha tashabbuslar bilan chiqishi, davlat hokimiyati boshqaruv organlariga takliflar kiritishi va boshqa huquqlarni amalga oshirish orqali jamoatchilik nazoratini olib borishi mumkin [3].

"O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunda belgilangan jamoat birlashmalari tuzishning asosiy maqsadlaridan biri fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa huquq hamda erkinliklarini ro'yobga chiqarish, himoya imkoniyatlari bu tuzilmalarning to'la-to'kis jamoatchilik nazoratini olib borishda muhim omil bo'ladi. Ushbu qonunning 15-moddasiga ko'ra, jamoat

birlashmalari davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini tuzishda qatnashadi, ularning qarorlarini tayyorlashda ishtirok etadi, davlat, jamoat idoralarida o'z a'zolari nomidan ish yuritadi, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qiladi [4].

Jamoatchilik nazoratining umume'tirof etilgan sub'ektlariga fuqarolar hamda ularning muayyan guruhleri, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va ommaviy axborot vositalari kiradi. Mazkur subektlardan tashqari yana shunday tuzilmalar borki, ular ham jamoatchilik nazorati olib borishi mumkin. Davlat hokimiyati yoki boshqaruv organlari (vazirliklar, idoralar va boshqalar) huzurida tashkil etiladigan jamoatchilik tuzilmalari (kengashlar, komissiyalar, guruhlar), nodavlat notijorat tashkilotlarda tuzilgan jamoatchilik organlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan olib boriladigan jamoatchilik nazoratining ayrim ko'rinishlari O'zbekiston Respublikasining "Istemolchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Advokatura to'g'risida"gi, "Uy-joy mulkdorlar shirkatlari to'g'risida"gi qonunlarda ham o'z ifodasini topgan.

Fuqarolik jamiyati shakllanib borgan sari uning o'zagini tashkil etuvchi fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari roli va o'rni ortib boraveradi. Boshqacha aytganda ularning zimmasiga hozirgi paytda mahalliy davlat hokimiyat organlari bajarayotgan vakolatlarning bir qismini amalga oshirish bosqichma-bosqich yuklatilmoqda. Demak, bu organlarning vakolatlari kengaygani sari ular tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati turlari va shakllarining huquqiy asoslari ham kengayib boradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, mazkur organlar aniq sohalaridagi o'ndan ortiq yo'nalishlar bo'yicha jamoatchilik nazoratini olib borishi belgilangan [5].

Siyosiy partiyalar ham muayyan ma'noda jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi tuzilma bo'lib, ularning bu boradagi faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunining 1-moddasi mazmunini tashkil etadi. Unga ko'ra, "Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat a'zolarining muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir" [6].

Siyosiy partiyalar jamoatchilik nazoratini bir qator ko'rinishlarda amalga oshiradi. Xususan, saylab qo'yilgan davlat organlaridagi o'z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish, qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati vakillik organlari saylovlarida qatnashish, parlament quyi palatasidagi o'z fraksiyalari orqali tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri, Senat raisiga, O'zbekiston Respublikasi hukumatiga, vazirlarga, boshqa davlat organlarining rahbarlariga so'rovlar bilan murojaat etish, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga hamda ularning rahbarlariga, shuningdek, tegishli hududda joylashgan korxona, muassasa, tashkilotlarning rahbarlariga murojaat etishi orqali jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

Ommaviy axborot vositalari tomonidan olib boriladigan jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunda aniq belgilab qo‘yilgan. Mazkur qonunning 3-moddasi har kimning ommaviy axborot vositalarida chiqish, o‘z fikrini oshkora bayon etish huquqiga egaligini, 9-modda esa jurnalist tekshiruvini amalga oshirish huquqini kafolatlaydi. Har bir fuqaro va jurnalist o‘z fikrini ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilib, o‘ziga xos ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. Bu ta’sir jamoatchilik fikrini vujudga keltirishi, hokimiyat va boshqaruv organlarini tegishli qaror qabul qilishga, buzilgan huquqni tiklash yoki huquqni himoya qilish jarayonini amalga oshirishga, kishilarda huquqiy ong, madaniyatni yuksaltirishga asos bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari ayrim ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga, davlat va jamiyat qurilishi masalalariga, qabul qilinishi mo‘ljallangan qonun loyihalari hamda hukumat qarorlariga o‘z munosabatini bildirish orqali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi mumkin [7].

Xulosa. O‘zbekistonda jamoatchilik nazoratini tom ma’noda yuksaltirish uchun huquqiy asoslar ham, uni amalga oshiradigan sub’ektlar tizimi ham yaratilgani huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatining muhim tamoyili bo‘lgan qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi. CHunonchi, qonun ustuvorligi jamoatchilik nazorati qat’iy qaror topgan jamiyatdagina ijtimoiy adolatning asosiy mezoni bo‘lishi mumkin.

Bularning barchasi – yurtimizda davlat organlari va mansabdor shaxslar ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish inson huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini ta’minlash, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga xizmat qilishi bilan e’tiborga molikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. T.: “Ma’naviyat” 2017 yil.

2. Islom Karimov “O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari”. Oliy Majlisning XI sessiyasidagi nutqi. 2010 yil 12 noyabr.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Axborotnomasi” 1999 yil, № 5, 115-modda.

4. “O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent 1991 yil 15-fevral. 15-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent 1993 yil 2-sentyabr.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni. 1996 yil 26 dekabr. 1-modda.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent 1997 yil 26-dekabr. 3, 9- moddalar.

8. Хакимов О. М., Курбанов З. Х., Мухаммедов Ф. Реализация возможностей получения легких наполнителей на основе меньше пластиковых

почв в нашей республике //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 176-181.

9. ХАКИМОВ О., Қурбонов З. ПЛАСТИКЛИГИ КАМ ТУПРОҚЛАР АСОСИДА ЕНГИЛ ТЎЛДИРУВЧИЛАР ОЛИШ ИМКОНИЯТЛАРИНИ ЎРГАНИШ //Solution of social problems in management and economy. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 58-64.

10. Khakimov O. M. Issiq-quruq iqlim sharoiti uchun asfaltbeton tarkibini tanlash //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 241-247.

11. Hakimov O.M., Yoshlar yosh davlat haqida. Yoshlar madaniyatini rivojlantirishda oila va ta'lim muassasalardagi ta'lim – tarbiyaviy jarayonlar // Ijtimoiy fikr inson huquqlari № 4 2022yil 50 bet.

12. Hakimov O. DESCRIPTION OF SOCIAL SERVICES FOR THE ADAPTATION OF CHILDREN WITH DISABILITIES IN SOCIETY //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 19-24.

13. HAKIMOV O. A. Doctor of Philosophy in the Department of Economics and Finance in the Graduate School of : дис. – Middle Tennessee State University, 2006.

14. KHAKIMOV O., JALOLIDDINOVA S. IMPACT OF DEPRESSION ON HUMAN LIFE //Social sciences.

15. Orziqul H., Sevinch J. O 'SMIRLIK DAVRIDAGI TAJOVUZKORLIK SABABLARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 310-314.

16. Hakimov O., Ortiqov O., Xoslimurodov I. RENAISSANCE PHILOSOPHERS AND THEIR CONTRIBUTIONS TO THE DEVELOPMENT OF PHILOSOPHY //SPAST Abstracts. – 2023. – Т. 2. – №. 02.

17. Hakimov O., Mulholland J. FUQAROLIK JAMIYATINI BARPO ETISHDA JAMOATCHILIK FIKRINING O 'RNI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 458-464.

18. Hakimov O., Subhiddinov S. YOSHLAR MADANIYATINI OSHIRISHDA TA'LIM TARBIYA JARAYONI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 473-476.

19. Hakimov O., Sultonova L. DIQQATNING PSIXOFIZIOLOGIK TA'SIRI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 477-480.

20. ХАКИМОВ О. Imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga moslashtirishda ijtimoiy xizmat ko 'rsatishning o 'ziga xos xususiyatlari //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 408-413.

21. Hakimov O., Donaboyeva D. GENDER STEREOTIPLARI VA AYOLLARGA MOS KASBLAR //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 155-160.

22. Hakimov O., Rajabaliyev S. FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O 'RNI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 142-148.

23. Hakimov O., Jabborova G. JAMIYATDA GENDER STEREOTIPLARI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 149-154.